

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI  
ILMIY AXBOROTNOMASI**

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО  
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**

**SCIENTIFIC BULLETIN OF  
NAMANGAN STATE UNIVERSITY**





**S.AHMADNINGNING "QORAKO'Z MAJNUN" VA PAMELA S.TURNERNING**

**"HACHIKO"HIKOYALARIDA "IT" ZOOSEMASIDA SADOQAT TIMSOLI**

BDU Ingiz Adabiyotshunosligi kafedrasi o'qituvchisi

Toirova Umida Sobirovna

toirovaumida101@gmail.com telefon +998906140167

*Annotasiya:* Maqolada har ikkala adabiyot namoyondalarining hikoyalari ya'ni it zoosemasining insonlar xarakter xususiyatiga xos bo'lgan bir bo'lagi vafodorlik motivi misollar orqali tahlil qilib boriladi. O'z egasiga sadoqat ila xizmat qilish \ tushunchasining asl mohiyati it obrazi bilan yorililadi.

*Kalit so'zlar:* zoosema, timsol, ramz, ashobi kahf, kofir

**A SYMBOL OF LOYALTY IN S.AHMAD'S "KARAKOZ MAJNUN AND**

**PAMELA.S.TURNER'S "HACHIKO" STORIES THROUGH DOG ZOOSEMY**

BSU a teacher of English literature department toirovaumida101@gmail.com phone:

+998906140167

*Abstract:* The article analyzes the stories of both literature, loyalty is one part of the human character. The feature of dog zoosemy is given with examples of loyalty motives. The essence of the concept faithfulness and the service to its owner is illustrated by the image of dogs.

*Key words:* zoosemy, symbol ,sign, ashobi kahf,kofir

**СИМВОЛ ВЕРНОСТИ В РАССКАЗАХ С. АХМАДА «КАРАКОЗ МЕЖНУН» И ПАМЕЛЫ  
С. ТЕРНЕР «ХАТИКО» В ЗООСЕМЕ «СОБАКА».**

БГУ Преподаватель кафедры английского литературоведения БГУ.

Тоирова Умида Собировна

toirovaumida101@gmail.com телефон: +998906140167

*Аннотация:* В этой статье обобщены (анализируются) рассказы обоих литературных деятелей на основе примеров зоосемы собаки, как мотива верности в характере человека. Образом собаки иллюстрируется суть понятия верной службы своему хозяину.

*Ключы:* зоосема, символ, асхоби кахф ,кофир

Said Ahmad hikoyanavis sifatida tanilgan. Uning hikooyalari mazmundorligi, ramziyiligi , odamgarchiligi, ayniqsa hayvonlar va insonlar o'rtasidagi sadoqatlilik bilan alohida o'rinnegallaydi. Uning, «Bo'ston», «To'yboshi», «Jimjitlik», «Turnalar», «Hayqiriq», «Alla», «Muhabbatning tug'ilishi», «Oorako'z Majnun» singari o'nlab hikoyalarda mehr, sadoqat, ishonch, e'tiqod singari ma'naviy qadriyatlar ta'sirchan aks ettirilgan. Adib hikoyalarda inson ruhiyati tovlanishlarini ko'rsatishga katta e'tibor bergenligi uchun ham bitganlari zavq bilan o'qiladi va u prozaning shoiri hisoblanadi. Yozuvchi hajviy hikoyalari yaratish bo'yicha Qahhor an'analarini davom ettirgan ijodkordir. Uning «Sobiq», «Ooplön», «O'rik domla», «Mening do'stim Babbaev», «Muzey», «Bo'ri ovi», «Xandonpista» kabi ko'plab hajviyalarida inson tabiatidagi qusurlar badiiy tadqiq etiladi. Said Ahmad hajviy so'z jilolarini nozik payqaydi va undan mohirona foydalanadi. . [1]

Qorako'z Majnun hikoyasidagi ushbu epigraf hikoya boshlashdan oldin misol tariqasida keltirilgan.



*Qur'oni karimdan: «Sizlardan qaysi biringiz o'z dinidan qaytsa va shu kofirligicha o'lsa, bas, ana o'shalarning (qilgan savobli) amallari albatta (bekor) bo'lur, ular do'zax ahlidurlar va u yerda mangu qolurlar». Baqara surasi, 217-oyat. Hadisi sharifdan: «Jannatga kiradigan o'n nafar hayvondan biri bu ashobi kahfning vafodor iti dir». Al-jome al-Kabir. [2]*

Nega aynan ushbu epigraf Qur'on oyatlaridan, hamda Hadisi sharifdan keltirilgan va bu bilan yozuvchi nima demoqchi ekan degan savol tug'ilish bejis emas albatta.

Hikoyani o'qir ekanmiz bu yerda 2 xil it obrazlari ya'ni zoosemalari ya'ni o'z dinidan , vatanidan judo bo'lган it qilmishini ya'ni hayvon qiladigan amallarni bajaradigan inson it qiyofasida tushunilsa,haqiqiy hayvon esa inson qilmagan nobakor va zug'umlardan xoli bo'lib, doimo o'z egasi yonida hamroh bo'lган holda sadoqat ila xizmat qiladi. Vaholanki ularning surati ya'ni inson suratidagi hayvon va hayvon suratidagi inson qiyofalari gavdalanadi.

*Shu tut tagida bir oppoq it supurgi ustida uxlab yotibdi. Kichkinagina, belida belbog 'dek ikkita — biri qora, biri jigarrang chizig'i bor. Xuddi kimdir ataylab bo'yab qo'yganga o'xshab ko'rindi. Tumshug'i bilan ikki ko'zi qop-qora. Bir ko'zining tepasida to'mtoq qoshi ham bor.*

It obrazini yozuvchi talqin qilar ekan , uning tashqi ko'rinishidagi tasvir qora jigarrang ranglardagi chiziqlar orqali itning kuchliliginini, baquvvatligini, sadoqatligidan dalolat beruvchi sifatlardir.Uning tumshug'idagi va ko'zlarida qoralik uning hushyorligi va ziyrakligining timsoli bo'lsa, ajab emas.

— Ha-a, joningni huzurini bilmay o'l-a! Supurginiyam harom qilding. — Qo'y, urishma, opasi, Qorako 'z hali bola-da! — Nima deyapsiz, oyijon! Bu it o'lgurga men nega opa bo'larkanman?! — dedi Qumrixon nolib.— Agar Qorako 'zni yana supurgi bilan ursang, unga kosov otsang, bilib qo'y, ukalarinchniga ketib qolaman. — Voy, oyijon-ey, it o'lsin, odamdan aziz bo'lmay! Shu itni deb bizni tashlab ketmoqchimisiz? Qo'ying-e!

Yuqorida keltirilgan misolda esa Saodat ayaning bolalarcha yuragida kiri yo'q yuvosh va mehribon inson bo'lganligi uchun nafaqat insonlarga balki hayvonga ham ozor berolmasdi , qizi Qumrixonga itni boshqa urmasligiga sha'ma qilib qo'yar, boshqa bolalarining uyga ketib qolishi bilan tahdid qilishi uning itga qanchalik mehr qo'yanligidan dalolat beradi. Hattoki itni bir bolada, opasi deya , uni xuddiki o'z kenja farzandi qatorida ko'rishligi hammani hayratda qoldirishi ajab emas.Umri davomida o'zi uchun yagona yupanchni va oqibatni faqatgina shu itdan olgan edi. Itga bog'lanib yurganidan hayotini qandaydir ma'nosi borligini sezар,doimo kimdir itiga qo'pollik qilsa, jahli chiqib uni kojishni boshlardi ,agar bu ham ish bermasa uydan ketib qolishini takror-takror aytardi.— *Shu bilan ovunib yuribman. Qayoqqa borsam, yonimda. Bir qadam nari ketmaydi. Menga ayt-chi, ukalaring, singillaring haftada bir xabar olsa oladi, olmasa yo'q. Kasalxonada yotganimda shu itgina ko'kragini qorga berib hovlida bir oy deraza tagida yotgan. Senlar qo'ni-qo'shnining qistovi bilan bir-ikki xabar oldilaring, xolos. — Oyijon, qo'ying endi... — dedi Qumri norozi bo'lib.*

Haqiqatdan Saodat ayaning itga bo'lgan samimiyligi,mehribonligi bejiz emas edi.It ham egasining bunday mehribonchilik va g'amho'rligiga javoban unga sadoqat ila xizmat qiladi. Qayerga bormasin doimiy ravishda ergashib borar,hattoki kasal bo'lib, kasalxonaga davolangani yotganida it sovuqni sovuq demay 1 oy egasini poylab kasalxonada derazasi yonida qimirlamay yotgan. Saodat ayaning farzandlari bo'lsada,ular haftad bir yoki ikki kelib ketar, it esa hamisha egasi yonida o'tirar edi.Beva bo'lganligi sababli, u yolg'izlikda qiyinalar,dariddoshi va sirdoshi yo'qligidan bu it ayaga yolg'izlikni his qilmaslikka yordam berardi. Shu it orqali tasalli va dalda olib yashardi.



U ayvonga yetolmay hushidan ketib yiqildi. Qorako'z uning atrofida ulib aylanardi. Qumri yotgan uyning eshigini timdalab, uni uyg'otmoqchi bo'ldi. Qumri uyqusini buzgan itni qarg'ay-qarg'ay hovliga chiqdi. Qorako'z uning etagidan tortib, kampir yotgan joyga sudradi. Qumri onasining behush yotganini ko'rib qo'rqib ketdi.

It yuqorida aytib o'tganimizdek hamisha Saodat aya orqasidan ergashib borar, uning har bir ishidan xabardordek ko'rindi. Darhaqiqat bir kun Saodat aya hushidan ketib, yiqilganda ham uning iti yonida bo'ladi va jon holati boricha eshikni timdalab bo'lsada Qumrini ya'ni egasining qizini uyg'otishga harakat qiladi. Qumri nimaligini fahmlamagani uchun itni qarg'ashga tushadi, ammo itning naqadar bezovtaligi va Qumrining etagidan tortib egasi tomon yo'l ko'rsatishi va sudrashi, Itning egasiga sodiqligidan xabar beradi. Chunki it doimiy bu ayolga hamroh bo'lganidan, uning yonidan jilmasdi. Uning har bir holatidan boxabar edi.

*Bir kun Qorako'zning mijjalarida yosh ko'rib Qum-rining yuraklari ezilib ketdi. Qorako'zga qo'shilib u ham yig'ldi. Asta qo'l yuborib, uning boshlaridan siladi. Oldin bu itni jinidan ham yomon ko'rardi. Necha marta kosov bilan urgan. Oyog'i ostida o'ralashganda tepib yuborgan. Qorako'z ham uni unchalik suymasdi. Ana endi ikki munligi 'bir-biriga qarab yum-yum yosh to'kishyapti. Qorako'z endi kechalari daydib ketmay qo'ydi Boloxonaga qarab vovullayverdi, vovullayverdi...*

Qorako'z Majnun egasini yo'qotdi. O'z bolasi Bo'riboydan kutmagan yaxshilik va mehrni shu itdan ko'rdi. Qorako'z majnun laqabli it jonzot bo'lsada, lekin uning ishi Insonning ishidan ulug'roq bo'ldi, Saodat ayaga yupanch bo'ldi, Sodiq bo'ldi, xatto o'limidan so'ng ham Saodat ayani qidirdi. Dardini ko'zлari to'la yosh bilan ifodaladi. Egasi bu yorug' olamda bo'lmasada, uni mudom kutib yashashga hattoki unga odat bo'lib qolgan qilig'i daydishdan to'xtab, boloxonaga qarab vovullardi. Xo'sh Saodat ayaning o'g'lichi chu itchilik onasiga mehr bera oldimi, uni bir necha yil ko'rmaganida nelarni hisqila oldiyu nelarni his qilmadi. Lekin bu zotga oddiy kuchuk sifati emas, balki jannatga kira oladigan jonzot maqomi berildi. Uning sog'inchini, uning vovullashi kishi g'ashini keltingani bois o'z ko'ksini egasining magnitofon tasmalariga yozib olingen yozuvlarini eshitib, o'lim o'qlari tomon yo'lladi.

Pamela Turnir amerika yozuvchilardan bo'lib, u Yaponiyada bo'lganidan keyin, uning asr yozish istagi paydo bo'ldi va uning birinchi kitobi "Hachiko" sodiq itning haqiqiy hikoyasi bo'lib, bu hikoya taniqli bo'lgan Yapon hikoyasiga asoslanadi. Uning ijod yo'li ayniqsa bolalar adabiyoti bilan bog'liq. [3]

*He was sitting quietly, all alone, by a newspaper stand. He had thick, cream-colored fur, small pointed ears, and a broad, bushy tail that curved up over his back. I wondered if the dog was a stray, but he was wearing a nice leather harness and looked healthy and strong. . [4]*

Hachikoning tashqi ko'rinishi nihoyatda jozibali shu bilan birga uning qalini va qaymoqrang terisi, quloqlarining kattaligi, dumi esa qayrilgan bo'lib, u kuchli va sog'lom ko'rindi. Bunday ta'rif itning tashqi ko'rinishi ifodalab kelmoqda. Nafaqat uning tashqi ko'rinishidan qanday turdag'i it ekanligini bilish mumkin edi, balki baquvvatligi va so'g'lom hayvon ekanini ham isbotlaydigan holatlar ham bore di.

*The dog was beautiful, but his sharp face reminded me of a wolf's. I grabbed Mama's kimono and stepped behind her, just in case. "Don't be afraid," said Dr. Ueno kindly. "This is Hachiko. He is big, but still a puppy. He walks me to the station every morning and waits for me to come home every afternoon.*

Bu it ko'rinishdan ham chiroyli, ham ko'zga tashlanadigan tuyulardi. Uning yuzi bo'rilar yuzini eslatar go'yoki ular bo'rilar avlodiga mansubdek. Uning nomi Hachiko bo'lib, har kuni egasinin to stansiyagacha kuzatib borar va uning peshin kelishini kutib o'tirardi.



Uning Yoshi biro z ulg'aygan bo'lsada , u hali ham kuchuk bolasiga o'xshab ketar, biroq hech qachon egasini yolg'iz qoldirmas,doimo u bilan yonma-yon yurishni xush ko'rardи.

*When we got home, Papa told us that Dr. Ueno had died that morning at the university. I was stunned. "But what will happen to Hachiko?" I asked, blinking hard to keep the tears back. "What will he do?" "I don't know," said Papa. "Perhaps Dr. Ueno's relatives will take him.*

Yuqorida keltirilgan misolda biz professorning o'lganini va uning iti endi uning qarindoshlariga qarashli ekanligini bilib olishimiz mumkin. Zeroki professorning bevaqt universitetda o'lishi hammani hayratga solgan edi. Ko'pchilik uni ko'z yoshi orqali xotiralashni va albatta uning itiga achinishardilar. Chunki ular uni qanchalik o'z egasiga o'rganib qolganini yaxshi bilar edi. Hamma Hachikoning taqdiriga qiziqar, uning keyingi hayotida qanday kunlar bo'lishi mumkinligini o'ylab xavotirga edilar.

*But Hachiko had other ideas. A few days later he was back at Shibuya Station, patiently waiting, his brown eyes fixed on the entrance. Hachiko had run back to his old home, and from there to Shibuya Station. Mama and Papa let me take food and water to Hachiko every day.*

Bundan ko'rinib turibdiki, bu it ham o'z egasiga bo'lgan mehri tufayli uzoq bir joyga qololmagan.U tezda orqaga qaytib,Shibuya stansiyasiga sabr va matonat ila o'z egasining ishdan qaytishini intazorlik ila kutadi.Uning nigohlari stansiya chiqish eshiklariga xuddi tamg'alab qo'yilgandek tikilib,ko'z uzmasdan xo'jayinini kutishdan charchamas edi.Doimiy o'zining eski uyiga borib yana stansiyaga kelib o'tirishni odat qiladi.Albatta bu it o'z egasinigina tan olar boshqa birovga bo'ysunishni xohlamas edi.

*As the years passed and Hachiko got older, he became very stiff and could barely walk to Shibuya Station. But he still went, every day. People began collecting money to build a statue of Hachiko at the station. Papa, Mama, and I all gave money and we were very happy when the statue was placed next to the spot Hachiko had waited for so many years.*

Hachikoning umri shu yo'sinda o'taverdi u, umrining oxirigacha shu bekatda egasini kutib yashadui va o'z umidini so'ndirmadi.U zif va qari bo'lismidan qat'iy nazar har kuni uydan stansiyaga qatnab yurardi.Odamlar uning bunday sadoqatliligin ko'rib,unga haykal qo'yish pul yig'ishni boshlaydilar.Bu haykal esa uning kutib o'tirgan joyiga qo'yiladi.Bunday xislatning hayvonda bo'lishi ,uning insonni so'ngi nafasigacha kutishi aql bovar qilmaydigan xolat.Xolbuki bu it ham xuddi Qorako'z Majnun kabi egasini har yerdan izlashni va uning qaytib kelishini kutadigan jonivor turidandir.Albatta bu hikoya real xayot voqealariga borib taqaladi.

*"Hachiko died last night at Shibuya Station," she choked. "Still waiting for Dr. Ueno." Later that day we went to the station. To our great surprise, Hachiko's spot near the newspaper stand was covered in flowers placed there by his many friends.*

Garchi hikoya bu sadoqatli itning o'limi bilan tugagan bo'lsada, u insonlar qalbi va ongidan alohida o'rinnegallagan qahramon bo'lib gavdalanadi. Uning haykali qo'yilgan joy esa gullar bilan qoplanadi. Eng qiziq va hayratli tomoni Hachiko doimo egasini kutib turgan joyida egasini kelib qolishini intiqlik va umid ila bir necha yil davomida kutib vafot etadi. Uning kutgan joyida esa Sadoqatli it degan haykal qo'yiladi.

Demak har ikkala hikoyalarda ham it zoosemasining sadoqatlilik timsolini, Bo'riboy obrazida esa razil, diyonatsiz, iymonsiz it qiyofasini ko'rish mumkin. Said Ahmad itni ba'zi bir o'z dini va millatidan kechadigan odamlardan ustun qo'ysa, Pamela Turnir esa itning til ila tasvirlab bo'lmaydigan vafo siyomosi orqali bayon etishni maqsad qiladi. Har ikkala it o'z egalarining sodiq itlari sifatida adabiyot sahifalaridan o'rinnegallagan.



**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Sultonmurod Olim, Sunnat Ahmedov, Rahmon Qo'chqorov "Adabiyot" 8-sinf darslik G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent – 2014
2. S.Ahmad "Qorako'z Majnun" Sano standart nashriyoti Toshkent 2016 yil
3. ([https://uz.wikipedia.org/wiki/Pamela\\_S.Turner](https://uz.wikipedia.org/wiki/Pamela_S.Turner))
4. Pamela S.Turner "Hachiko"

**LITERATURE REVIEW OF COMMUNITY BUILDING IN THE CLASSROOM AND THE ACTIVITIES RELATED TO THE COLLABORATIVE BUILDING IN THE CLASSROOM**

Valijanov Sherzod Abdug'ani o'g'li

English language teacher

Namangan state university

*Annotation: this article describes the essential information pertinent to community building in the classroom. The different scientists in this specialty gave their perceptions the essence of collaborative building in the class as well as there are illustrated a variety of activities and games that help to build collaboration in language acquisition.*

*Key words: community building, norms and rules, kindness, shared goal, rituals, snowball toss, circle game chair.*

**ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ О СОВМЕСТНОМ ПОСТРОЕНИИ В КЛАССЕ И МЕРОПРИЯТИЯХ, СВЯЗАННЫХ С СОВМЕСТНЫМ ПОСТРОЕНИЕМ В КЛАССЕ.**

Валижанов Шерзод Абдугани ўғли

учитель английского языка

Наманганская государственная университет

*Аннотация: в этой статье описывается важная информация, относящаяся к созданию сообщества в классе. Различные ученые в этой области поделились своим восприятием сущности построения совместной работы в классе, а также проиллюстрировали различные виды деятельности и игр, которые помогают наладить сотрудничество в овладении языком.*

*Ключевые слова: совместное обучение, нормы и правила, доброта, общая цель, ритуалы, игра в снежки, стул для игры в круг.*

**O'QUV JARAYONIDA JAMOAVIYLIKNI SHAKLLANTIRISHNING  
ADABIYOTLAR TAXLILI VA O'QUV JARAYONIDA JAMOAVIYLIKNI  
SHAKLLANTIRISHGA DOIR MASHQLAR**

Valijanov Sherzod Abdug'ani o'g'li

Ingliz tili o'qituvchisi

Namangan davlat universiteti

*Annotatsiya: ushbu maqolada o'quv jarayonida jamoaviylikni shakllantirishga doir muhim ma'lumotlar berilgan. Ushbu sohadagi izlanishlar qilgan olimlarning o'quv jarayonida jamoaviy shakllantirishning muhimligi haqida fikrlari berilgan va til o'rganishda jamoaviy bo'lib ishlashga doir mashqlar, topshiriqlar, o'yinlar ko'rsatib o'tilgan.*



84	<b>Problems of complex research of terminology</b>	
	Muminova D.A .....	451
85	<b>O'zbek tili savodxonligi va nutqni yuksaltirishda raqamlar ta'lifining ahamiyati</b>	
	Shermatova O.A., Sadreddinov A.S .....	455
86	<b>Theoretical scientific views on metaphor in english and uzbek</b>	
	Meliboyeva M.B. ....	462
87	<b>S.Ahmadningning "Qorako'z majnun" va Pamela S.Turnering "Hachiko" hikoyalarida "It" zoosemasida sadoqat timsoli</b>	
	Toirova U.S .....	466
88	<b>Literature review of community building in the classroom and the activities related to the collaborative building in the classroom</b>	
	Valijanov Sh.A .....	470
89	<b>XIX asrda ayollarning jamiyatdagi mavqeい</b>	
	Rashidova F.R .....	474
90	<b>Generonimlarning invariant-variant munosabatlari</b>	
	Xoldarova I.V.....	478
91	<b>Алпомиши достонидаги фразеологизмларнинг этиимологик тадқиқи.</b>	
	Ахмедов Х.Я .....	483
92	<b>Туркизмларнинг инглиз тилида пайдо бўлишининг тарихий шартшароитлари</b>	
	Воситов В.А .....	491
93	<b>Tilshunoslikda pleonazm va tavtologiyaning farqli jihatlari</b>	
	Yo'ldosheva D.X .....	495
94	<b>O'zbek tilida maxsus fonetik va fonostistik effekt beruvchi alliteratsiya tushunchasi va san'ati haqida</b>	
	Islomov D.Sh.....	498
95	<b>Ўзбекча диний матнлар фразеологияси</b>	
	Амонтурдиева Ш.Р .....	503
96	<b>Qarg'ishlarning sotsiologik xususiyatlari</b>	
	Zakirova D.X.....	511
97	<b>Инглиз ва ўзбек тилларида "Табу"нинг илмий ўрганилиши</b>	
	Бахриддинова Д.О .....	514
98	<b>Ўзбек системавий тилшунослигининг шаклланишида профессор Нурмоновнинг ўрни</b>	
	Искандарова Ш.М., Иминжонова Х.З. ....	518
99	<b>The role of topochronos in poetry analysis</b>	
	Yo'lchiyev Q.V .....	523
100	<b>Концепт тушунчасининг тарихий ривожланиши</b>	
	Эштўхтарова Б.Б. ....	529
101	<b>Использование синтаксических конструкций в произведениях А.П.Чехова</b>	
	Лутфитдинова М.Х., Дедаҳанова М.М .....	534